



UDK: 336.71.078:336.74

**PUL-KREDIT SIYOSATIDA TIJORAT BANKLARINING FAOLIYATINI
TARTIBGA SOLISHDA RAQAMLI TEXNALOGIYALARDAN
SAMARALI FOYDALANISH**

Suyunov Samandar Sharofiddin o'g'li,

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Samarqand filiali talabasi

E-mail: suyunovsamandar606@gmail.com

+998-99-168-46-04

Isoqulov Jahongir Yodgor o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti

Samarqand filiali talabasi.

E-mail: isoqulovjahongir@gmail.com

+998-93-992-20-88

Abdurashidov Bekjon Shuxrat o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti

Samarqand filiali talabasi,

E-mail: bekjon0399@gmail.com

+998-88-609-40-03

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida pul-kredit siyosatini amalga oshirishda tijorat banklari faoliyatini tartibga solishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda pul-kredit siyosatining makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni, Markaziy bank tomonidan qo'llanilayotgan asosiy instrumentlarning tijorat banklari faoliyatiga ta'siri hamda ushbu jarayonda raqamli texnologiyalarning ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan.



Maqolada raqamli bank xizmatlari, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari, raqamli nazorat va tahlil vositalaridan foydalanish orqali tijorat banklarining kreditlash faoliyati, likvidlikni boshqarish va risklarni kamaytirish imkoniyatlari tahlil etilgan. Shuningdek, pul-kredit siyosati instrumentlarini amalga oshirishda raqamli texnologiyalar asosida axborot almashinuvi samaradorligini oshirish, qarorlar qabul qilish tezligini yaxshilash va bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: pul-kredit siyosati, tijorat banklari, bank tizimi, Markaziy bank, raqamli texnologiyalar, raqamli bank xizmatlari, avtomatlashtirilgan monitoring, bank nazorati, likvidlikni boshqarish, kreditlash faoliyati, risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlik.

ABSTRACT. This article analyzes the issues of effective use of digital technologies in regulating the activities of commercial banks in the implementation of monetary policy under the conditions of a modern market economy. The study examines the role of monetary policy in ensuring macroeconomic stability, the impact of key instruments applied by the Central Bank on the activities of commercial banks, as well as the significance of digital technologies in this process from a scientific and theoretical perspective.

The article analyzes the possibilities of improving lending activities, liquidity management, and risk reduction of commercial banks through the use of digital banking services, automated monitoring systems, and digital control and analytical tools. In addition, special attention is paid to increasing the efficiency of information exchange, improving the speed of decision-making, and ensuring the financial stability of the banking system through the application of digital technologies in the implementation of monetary policy instruments.

Keywords: monetary policy, commercial banks, banking system, Central Bank, digital technologies, digital banking services, automated monitoring, banking



supervision, liquidity management, lending activities, risk management, financial stability.

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируются вопросы эффективного использования цифровых технологий в регулировании деятельности коммерческих банков в процессе реализации денежно-кредитной политики в условиях современной рыночной экономики. В исследовании раскрывается роль денежно-кредитной политики в обеспечении макроэкономической стабильности, влияние основных инструментов, применяемых Центральным банком, на деятельность коммерческих банков, а также значение цифровых технологий в данном процессе с научно-теоретической точки зрения.

В статье рассмотрены возможности повышения эффективности кредитной деятельности, управления ликвидностью и снижения рисков коммерческих банков за счет использования цифровых банковских услуг, автоматизированных систем мониторинга, цифровых инструментов контроля и анализа. Особое внимание уделено вопросам повышения эффективности информационного обмена, ускорения процесса принятия решений и обеспечения финансовой стабильности банковской системы на основе применения цифровых технологий при реализации инструментов денежно-кредитной политики.

Ключевые слова: денежно-кредитная политика, коммерческие банки, банковская система, Центральный банк, цифровые технологии, цифровые банковские услуги, автоматизированный мониторинг, банковский надзор, управление ликвидностью, кредитная деятельность, управление рисками, финансовая стабильность.

KIRISH. Bugungi kunda O‘zbekistonning bozor iqtisodiyoti va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida moliya-bank tizimini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bank tizimi iqtisodiyotning “qon tomiri” bo‘lib, har bir soha rivoji tijorat banklari bilan



chambarchas bog‘liq ekanligi, ushbu strategiyani tatbiq etishda aynan banklar zimmasiga muhim vazifalar yuklatilgani ta’kidlanadi. Pul-kredit siyosati esa mamlakat iqtisodiy barqarorligini va uning samarali faoliyatini ta’minlashga qaratilgan asosiy chora-tadbirlar majmuasi bo‘lib, odatda Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu siyosat vositalari orqali iqtisodiyotda inflyatsiya darajasi, pul massasi va kreditlar hajmi nazorat qilinib, makroiqtisodiy barqarorlikka erishiladi.

So‘nggi yillarda bank sektorida raqamli texnologiyalar ulushining jadal o‘sishi kuzatilmoqda: masalan, 2025-yilda O‘zbekistonda raqamli to‘lovlar hajmi 9,73 mlrd AQSH dollariga yetdi. Ayni paytda moliya sohasida kiberxavfsizlik xatarlarining oshishi kuzatilmoqda – 2025-yilda kiberhujumlar soni 12 milliondan oshgani va firibgarlik holatlari 34 foizga ko‘paygani bu boradagi xavfsizlik masalalarini dolzarb qilmoqda. Bunday sharoitda tijorat banklari faoliyatini an’anaviy usullar bilan tartibga solish tizimi yetarlicha tezkor emasligi ayon bo‘lmoqda. Shu bois, pul-kredit siyosati doirasida banklarni nazorat qilishda zamonaviy raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish zarurati tug‘ilmoqda. Xususan, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimlari (CRM) banklarda ma’lumotlarni integratsiyalash va mijozlar segmentatsiyasini takomillashtirish orqali kredit portfeli sifati va xizmatlar samaradorligini oshiradi. Katta ma’lumotlar (Big Data) texnologiyalari ulkan axborot oqimini avtomatik tahlil qilib, moliyaviy ko‘rsatkichlar monitoringini tezlashtiradi hamda xatarlarni erta aniqlash imkonini beradi. Masalan, raqamli nazorat usullari banklar uchun xavflarning to‘liq panoramasini shakllantirib, ilgari aniqlanmagan xatarlarni tezda aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, Markaziy bank tomonidan joriy etilayotgan onlayn monitoring tizimlari tijorat banklarining likvidlilik, kapital yetarliligi va boshqa prudensial ko‘rsatkichlarini real vaqt rejimida kuzatib borib, normativ talablarga rioya etilishini uzluksiz nazorat qilish imkonini yaratadi.



Mazkur mavzuning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, unda pul-kredit siyosati samaradorligini oshirish maqsadida tijorat banklari faoliyatini tartibga solishning zamonaviy raqamli mexanizmlari o'rganiladi. Tadqiqot davomida ushbu yo'nalishdagi mavjud muammo va ehtiyojlar tahlil qilinib, raqamli yechimlar yordamida ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Allaqachon bank tizimida kiberxavfsizlik markazlari va anti-fraud tizimlarini tashkil etish kabi raqamli nazorat choralarining joriy etilishi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu sababli kutilayotgan tadqiqot natijalari ham iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga, bank tizimi xavfsizligini oshirishga hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida belgilangan maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI. Pul-kredit siyosati va tijorat banklarining tartibga solinishi masalalari makroiqtisodiyot nazariyasining asosiy qismlaridan biri bo'lib, bu borada ko'plab xorijiy olimlarning ilmiy asarlari mavjud. Klassik makroiqtisodiy nazariyaning asoschilaridan biri **Jon Meynard Keyns**ning monetar siyosat va foiz stavkalari haqidagi g'oyalari, xususan uning «**Pul islohoti to'g'risida traktat**» nomli asarida pul siyosatini yuritish hamda narxlar barqarorligini ta'minlashga qaratilgan uzoq muddatli yondashuvlar yoritilgan. Keyinchalik monetarizm yo'nalishining yetakchi vakili **Milton Fridman** tomonidan yozilgan «**AQShning pul tarixi**» asarida ¹pul taklifining iqtisodiy o'sish, inflyatsiya va bank tizimi faoliyatiga ta'siri chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy makroiqtisodiyotda **Frederik S. Mishkin**ning «**Pul-kredit siyosati strategiyasi**» hamda «**Pul, bank ishi va moliya bozorlari iqtisodiyoti**»² nomli darsliklarida pul-

¹ **Fridman M.** *AQShning pul tarixi, 1867–1960*

(A Monetary History of the United States, 1867–1960). — Princeton: Princeton University Press, 1963.

² **Keyns J.M.** *Pul islohoti to'g'risida traktat* (A Tract on Monetary Reform). — London: Macmillan, 1923; *Pul haqida traktat* (A Treatise on Money). — London: Macmillan, 1930; **Keyns J.M.** *Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi* (The General Theory of Employment, Interest and Money). — London: Macmillan, 1936.



kredit siyosatining mohiyati³, inflyatsion targetlash rejimi va markaziy bankning iqtisodiyotdagi roli har tomonlama ochib berilgan. Ushbu manbalar nafaqat pul-kredit siyosatining nazariy asoslarini, balki tijorat banklari faoliyati orqali uning real iqtisodiyotga ta'sir mexanizmlarini ham yoritib beradi.

O'zbekiston sharoitida pul-kredit siyosati va tijorat banklari faoliyatini tartibga solish masalalari so'nggi yillarda ko'plab yetakchi mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Jumladan, **Sh.I. Abdullayeva** o'zining ilmiy maqolalari va darsliklarida Markaziy bankning pul-kredit siyosati, inflyatsiyani nazorat qilish mexanizmlari hamda bank tizimi barqarorligini ta'minlash masalalarini batafsil tahlil qilgan⁴. Shuningdek, **O.O. Yo'ldoshevning** tadqiqotlarida tijorat banklarining kreditlash faoliyati, foiz siyosati va monetar siyosat instrumentlarining real iqtisodiyotga ta'siri ilmiy asosda yoritilgan⁵. Bundan tashqari, **M.Q. Mamarasulov, A.X. Vahobov** kabi olimlar tomonidan chop etilgan ilmiy ishlar va maqolalarda pul-kredit siyosati vositalarining bank tizimi samaradorligiga ta'siri, inflyatsiya va kreditlash o'rtasidagi bog'liqlik masalalari keng tahlil qilingan⁶. Ushbu tadqiqotlar O'zbekiston bank tizimi amaliyotida pul-kredit siyosatini takomillashtirish hamda tijorat banklari faoliyatini samarali tartibga solish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

METODOLOGIYA. Mazkur tadqiqot empirik yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlari, jumladan, pul-kredit siyosatining asosiy ko'rsatkichlari, tijorat banklarining kreditlash hajmi, likvidlik darajasi va foiz stavkalari bo'yicha ochiq ma'lumotlar tahlil qilindi. Shuningdek, respublikada faoliyat yuritayotgan

³ **Mishkin F.S.** *Pul-kredit siyosati strategiyasi*

(Monetary Policy Strategy). — Kembrij: MIT Press, 2007; *Pul, bank ishi va moliya bozorlari iqtisodiyoti* (The Economics of Money, Banking, and Financial Markets). — Boston: Pearson Education, 2018.

⁴ **Abdullayeva Sh.I.** *Pul-kredit siyosati va bank tizimini tartibga solish*. — Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019; *Monetar siyosat va makroiqtisodiy barqarorlik*. — Toshkent, 2021.

⁵ **Yo'ldoshev O.O.** *Tijorat banklarining kreditlash faoliyati va uning iqtisodiyotga ta'siri*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020;

⁶ **Mamarasulov M.Q.** *Pul-kredit siyosati va bank tizimi barqarorligi*. — Toshkent: O'zbekiston, 2018.

Vahobov A.X. *Bank ishi*. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.



tijorat banklarining yillik hisobotlari va moliyaviy ko'rsatkichlari empirik tahlil uchun axborot bazasi sifatida foydalanildi.

Empirik tahlil jarayonida statistik kuzatuv, dinamik va taqqoslama tahlil usullaridan foydalanildi. Tijorat banklari faoliyatining raqamli texnologiyalar joriy etilishidan oldingi va keyingi holati o'zaro taqqoslanib, kredit portfeli sifati, likvidlik ko'rsatkichlari hamda risk darajasidagi o'zgarishlar baholandi. Xususan, CRM tizimlari, Big Data va onlayn monitoring vositalarining bank faoliyatiga ta'siri kreditlash jarayonlari va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari misolida o'rganildi.

Tadqiqot davomida olingan empirik natijalarni umumlashtirish va tizimlashtirish orqali pul-kredit siyosatini amalga oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi baholandi. Natijalar asosida tijorat banklari faoliyatini tartibga solishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqildi. Ushbu empirik yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirishga hamda amaliy ahamiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

NATIJA. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 2024–2025 yillarda tijorat banklari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish sezilarli samaradorlik keltirmoqda. Quyidagi fakt va ko'rsatkichlar bunga misol bo'la oladi:

CRM tizimlarini joriy etish: Hozirgi vaqtda O'zbekiston bank sektoridagi aksariyat yirik banklar mijozlar bilan ishlashni yaxshilash maqsadida CRM (Customer Relationship Management) tizimlarini o'z faoliyatiga tatbiq etdi. Masalan, Agrobank banki raqamli transformatsiya strategiyasi doirasida mijozlar ma'lumotlarini boshqarish uchun zamonaviy Creatio CRM platformasini joriy qildi.

1-jadval.

Tijorat banklari faoliyatida yuzaga kelgan asosiy o'zgarishlar va ularning samaradorlik ko'rsatkichlari⁷

№	Ko'rsatkich / Texnologiya	Holat (avvalgi yillar)	Holat (2024–2025)	Samaradorlik natijasi
---	---------------------------	------------------------	-------------------	-----------------------

⁷ Muallif ishlanmasi



1	Masofaviy bank xizmatlari	Aniq ma'lumot yo'q / past darajada	74,18 mln foydalanuvchi (01.10.2025 holatiga)	Foydalanuvchilar soni keskin oshgan
2	CRM tizimi (Davr Bank misolida)	1 ish kunida karta/kredit rasmiylashtirish	15 daqiqada rasmiylashtirish; savdo hajmi +20%	Xizmat tezlashdi, mijoz konversiyasi oshdi
3	Big Data (kredit scoring)	Asosan an'anaviy tahlil	Riskli mijozlar Big Data orqali erta aniqlanmoqda	Kredit portfeli sifati yaxshilandi
4	Onlayn monitoring (MB nazorati)	Choraklik yoki oylik hisobotlar asosida	Real vaqt monitoring; SupTech orqali avtomatik nazorat	Tezkor ogohlantirish va choralar
5	Markaziy bank integratsiyasi	To'liq emas, kechikkan nazorat	35 ta bank to'liq onlayn tizimga ulanib nazorat qilinmoqda	Barqarorlik va shaffoflik oshdi
6	Tijorat banklarining umumiy foydasi	Kamroq yoki o'sish sust	1,24 mlrd AQSh dollari (2025)	Moliya barqarorligi oshgan

1-jadvalda 2024–2025 yillar davomida raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida tijorat banklari faoliyatida yuzaga kelgan asosiy o'zgarishlar va ularning samaradorlik ko'rsatkichlari solishtirma tarzda ifodalangan.

Xuddi shunday, Davr Bank 2025 yilda banking CRM tizimini tatbiq etib, natijada bir qator amaliy yutuqlarga erishdi: avval bank kartasini chiqarish bir kunga yaqin vaqt olgan bo'lsa, hozir o'rtacha 15 daqiqada rasmiylashtirmoqda; savdo bo'yicha konversiya 15–20% ga oshdi, bitimlarni ko'rib chiqish davri 40% ga qisqardi, murojaatlarni qayta ishlash vaqti esa uchdan biriga kamaydi. Bu ko'rsatkichlar CRM joriy etilishi mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirib, operatsion jarayonlarni tezlashtirayotganini tasdiqlaydi.⁸ Ayni paytda yirik davlat banki bo'lgan O'zmilliybank (NBU) ham 2023–2024 yillarda o'z mijozbazasini

⁸ Spot.uz: O'zbekiston tijorat banklari raqamli transformatsiyasi



boshqarishda CRM tizimini ishga tushirishni davom ettirganini ma'lum qilgan. Umuman olganda, 2025 yilga kelib 35 ta tijorat bankidan katta qismi (eng yirik 10–15 bank) zamonaviy CRM platformalariga ega bo'lib, qolganlari ham bosqichma-bosqich joriy etmoqda.

2024–2025 yillarda Markaziy bank tijorat banklari ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida real vaqt rejimidagi elektron monitoring tizimini to'liq yo'lga qo'ydi. Bugungi kunda barcha tijorat banklari Markaziy bankning onlayn nazorat tizimiga ulangan bo'lib, bu bank faoliyatini masofadan turib, doimiy kuzatib borish imkonini bermoqda.⁹ Markaziy bank endi banklardan choraklik yoki oylik hisobotlarni kutmasdan, ularning asosiy ko'rsatkichlari va operatsiyalarini onlayn rejimda monitoring qilish va tezkor tahlil qilishga erishdi. Jumladan, Markaziy bankning SupTech loyihalari doirasida banklar yuboradigan elektron hisobotlarni avtomatik tahlil qilish yo'lga qo'yildi. Bu esa nazorat organiga moliyaviy tavakkalchiliklarni erta aniqlash va banklarning prudensial me'yorlarga rioya etishini vaqtida tekshirish imkonini berdi. Misol uchun, eng yirik 20 ta mijoz bo'yicha monitoring endilikda har bir bankda doimiy olib borilib, natijalari Markaziy bankka tezkor ravishda ma'lum qilinmoqda. 2025 yilga kelib Markaziy bank tomonidan 35 ta tijorat bankining barchasi to'liq integratsiyalashgan onlayn kuzatuv tizimi orqali real vaqt rejimida nazorat qilinmoqda, bu esa an'anaviy inspeksiya va offlayn tekshiruvlarga sarflanadigan vaqtni keskin qisqartirdi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida banklar faoliyatida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, bank xizmatlaridan masofadan foydalanish ko'rsatkichlari keskin oshdi – 2025 yil 1-oktabr holatiga ko'ra masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari soni 74,18 millionga yetdi (solishtirish uchun, bu ko'rsatkich bir necha yil avval ancha past edi). CRM tizimlarini tatbiq etgan banklar mijozlar ehtiyojini yaxshiroq o'rganib, ularga tezroq xizmat

⁹ <https://cbu.uz/uz/financial-stability/macprudential-policy-tools/countercyclical-capital-buffer/>



ko'rsatmoqda – masalan, yuqorida aytilganidek, Davr Bankda CRM joriy etilgach yangi karta rasmiylashtirish va kredit berish jarayonlari 3–4 barobar tezlashdi, savdo hajmlari esa ~20% ga o'sdi.¹⁰ Big Data asosidagi kredit scoring tizimlari tufayli kredit portfeli sifati bo'yicha ko'rsatkichlar yaxshilanmoqda: banklar endi katta ma'lumotlar tahliliga asoslanib xatarli qarz oluvchilarni oldingiga qaraganda ancha ertaroq aniqlab, kechiktirmasdan tegishli choralar ko'ryapti. Onlayn monitoring tizimi joriy etilishi esa Markaziy bankka nazoratni oldingi yillardagiga nisbatan keskin tezlashtirdi – masalan, ilgari audit natijasida aniqlanadigan qoidabuzarliklar endi real vaqtda kuzatilib, erta ogohlantirish va ta'sirchan choralar ko'rish imkoniyati paydo bo'ldi. Natijada, 2024–2025 yillarda bank tizimida barqarorlik oshib, banklarning umumiy foydasi 2025 yilda 1,24 mlrd. AQSh dollariga yetib, o'tgan yilga nisbatan sezilarli o'sish qayd etildi.

DISKUSSIYA. Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalar — xususan, CRM tizimlari, Big Data, sun'iy intellekt va onlayn monitoring vositalarining pul-kredit siyosati uzatish mexanizmlarini kuchaytirishini ko'rsatdi. Ushbu texnologiyalar orqali Markaziy bank tijorat banklarining likvidlik darajasi, kredit hajmi va xatar ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatiga ega bo'ldi. Banklarda esa operatsion samaradorlik oshdi, kredit portfeli sifati yaxshilandi va mijozlarga xizmat ko'rsatish tezlashdi.

Biroq texnologiyalarni tatbiq etish jarayonida ayrim cheklovlar mavjud: xususan, kiberxavfsizlik tahdidlari, texnik infratuzilmaning ayrim banklarda yetarli emasligi hamda malakali IT-kadrlar tanqisligi. Shu sababli, raqamli nazorat vositalaridan samarali foydalanish uchun risklarni boshqarish, texnologik tayyorgarlik va inson resurslari bo'yicha kompleks yondashuv talab etiladi.

XULOSA. Yuqorida o'rganilgan tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, raqamli texnologiyalar — xususan, CRM tizimlari, Big Data, sun'iy intellekt va

¹⁰ Spot.uz: O'zbekiston tijorat banklari raqamli transformatsiyasi



onlayn monitoring vositalari — tijorat banklari faoliyatini tartibga solishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu texnologiyalar pul-kredit siyosatining iqtisodiyotga o‘tkazuvchanligini oshiradi, bank operatsiyalarini tezlashtiradi, kredit risklarini aniqlash va baholash imkonini beradi, shuningdek, Markaziy bankka real vaqt rejimida monitoring va nazoratni amalga oshirishga sharoit yaratadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, 2024–2025 yillarda raqamli nazorat vositalari bosqichma-bosqich joriy etilib, ayrim banklarda kredit portfeli sifati yaxshilangan, operatsion xarajatlar kamaygan va mijozlarga xizmat ko‘rsatish samaradorligi oshgan. Shuningdek, Markaziy bank tomonidan joriy etilgan SupTech tizimlari va onlayn monitoring tizimi regulyator nazoratini kuchaytirgan. Biroq, bu tizimlarning muvaffaqiyatli ishlashi uchun kiberxavfsizlik, texnik infratuzilma va malakali kadrlar masalalariga alohida e‘tibor qaratish zarur.

Tadqiqot doirasida ilgari surilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar bank tizimini yanada raqamlashtirish, pul-kredit siyosatini optimallashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

TASHAKKURNOMA. Mazkur ilmiy maqola tayyorlanishida zarur statistik ma’lumotlar, ilmiy manbalar va tahliliy ko‘rsatkichlar bilan ta‘minlagani uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti va tijorat banklarining ochiq yillik hisobotlaridan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqot davomida ilmiy maslahatlari uchun “Bank ishi va audit” kafedrası professor-o‘qituvchilariga chuqur minnatdorlik bildiraman.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Rasmiy statistik byulletenlar (2023–2025). www.cbu.uz
2. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori PQ-161-son, 2023-yil
3. Mishkin, F.S. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. Pearson, 2022



4. Karimov, B. (2022). *Banklarda raqamli transformatsiya yo'nalishlari*. "Iqtisodiyot va innovatsiya" jurnali
5. Markaziy bank. "SupTech tizimlari va raqamli nazorat amaliyoti" – 2024-yilgi hisobot. www.cbu.uz
6. Spot.uz (2024). "O'zbekistonda CRM tizimlarini joriy qilgan banklar soni oshmoqda"
7. Cleverik.com (2024). "Agrobank CRM Creatio loyihasi – amaliy natijalar"
8. Markaziy bank huzuridagi Kredit axborot tahliliy markazi (CIAC) ma'lumotlari.
9. IMF (2023). *Digital Technologies and Banking Supervision: Global Trends*.
10. World Bank (2022). *Enhancing Financial Sector Resilience through RegTech and SupTech Solutions*.